

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MATERIK VA OKEANLARNING TABIIY
GEOGRAFIYASI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Donoboyeva Munisa Ziyoviddin qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti magistratura bo'limi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada falsafiy, ilmiy, psixologik –pedagogik va adabiyotlar tahlili asosida Umumiy o'rta ta'lim maktablarida materik va okeanlarning tabiiy geografiyasi fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmuni va uni tashkil etishning asosiy qoidalari haqida so'z ketadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, tarkibiy hususiyatlari to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *AKT, litosfera plitasi, terrigen yotqiziqlar, okean loyqasi, qizil tusli okean geli, materik sayozligi (shelf), materik yonbag'ri, batial, abissal.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan to hozirgi kunga qadar ulkan islohotlar va taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Ushbu taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida komil insonning o'rni juda katta. Mamlakatimiz rivoji taraqqiyotining asosi ta'lim tizimining sifatli va mukammalligi bilan ham bog'liq. Shu sababdan ham o'sib-unib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish muhim omillardan sanaladi. Hozirgi zamonaviy kompyuterlashgan davrda atrofimizni minglab ma'lumotlar, turmushimizni og'irini yengil qiluvchi minglab ixtirolar, axborot-kommunikatsiya rivojlangan bir vaqtga kelib faqatgina berilgan bilimlarni yod oladigan, kitoblardagi formulalar asosida masala yecha oladigan farzandlar emas balki olgan bilimlarni amalda fikr-mulohaza qila olgan holda qo'llaydigan, o'z haq huquqlarini anglagan holda vaziyatga baho bera oladigan, yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan bir so'z bilan aytganda komil inson shahsini tarbiya etish eng muhim maqsadimizdir. Komil inson shahsini tarbiyalashda oiladan so'ng albatta ta'lim dargohlari turar ekan uning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish maktabgacha talim tashkilotida bu ish davom ettiriladi. Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limda esa bilimlarga ega bo'ladilar va kasb-hunarga yo'naltiriladi. Bu jarayonda ta'lim tizimini tashkil etishda samarali mexanizmlarni joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim shartidir. Hozirda bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kela olishi muhimdir.

Nafaqat jamiyatimizda balki butun jahonda nafaqat bilimli shu bilan birga o'z maqsadi bor va unga intiluvchan, ijodkor, mantiqan fikrlovchi, o'z fikriga ega insonlarga ta'lab kuchaygan. Shu sababli bunday shahsni tarbiyalashda qulay bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ta'limda ilg'or pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish juda dolzarb masalalardan biriga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda asosiy vazifa pedagog-o'qituvchilar zimmasiga tushib unda har bir bolaning individual salohiyatini hisobga olgan holda kerakli bilimlarni yetkazib bera olishi mahoratli pedagogning yutug'idir. Darhaqiqat inson tirik jonzotlar ichida eng murakkab tuzilgan aql-idrok sohibi, U dastlab ona qornida paydo bo'lganda individ deya ataymiz. Tug'ilgandan so'ng o'zining biologik ehtiyojlarini qondiruvchi odam. Atrof-muhitni o'rganib ming yillar davomida o'zlashtirilgan tajribalar mevasi bo'lgan ilmni o'zlashtira boshlasa va fikr qilishni boshlasa inson, agarda inson ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishi bo'lsa komil inson deb ataymiz. Aynan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda pedagoglarning roli juda muhimligini va shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot asrida odatiy bo'lib qolgan an'anaviy darslardan foydalanib bolaning diqqat-e'tiborini yig'ish juda qiyin va deyarli ilojsiz. Shu sababdanham zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars sifatining yuqori bo'lishiga va diqqatni bir joyda saqlashga, o'rganilayotgan materialning qiziqarli va ommabop bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Hayotimizga nazar tashlar ekanmiz qanchadan qancha ijtimoiy tarmoqlarda umrimizning katta qismining behuda o'tib ketayotganini korishimiz mumkin. Texnika rivojlanish chogida uning nafaqat qulay va foydaliligi balki zaralari borligini tanganing ikkinchi tomonidan ham korishimiz mumkin. Bizning vazifamiz esa ota-ona sifatida farzandlar tarbiyasida buni nazoratga olish pedagog sifatida esa bu tarmoqlardan dunyo orgimchak tori deya nom olgan internetdan togri foydalanish konikmalarini shakllantirgan holda oquvchilarga zarur bilim konikma va malakalarni shakllantirish. Bunda dars berish davomiyligida AKT

(Axborot kommunikatsiya texnologiyalari) dan foydalangan holatda darsni zamonaviy ilg'or innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda otish. Umumiy orta talim maktablarida geografiya fanini oqitishda bu texnologiyalarni qollash ham oz natijasini korsatadi. 7-sinf geografiya darsligining IV bob Dunyo okeani 4.2 mavzu Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi va relyefi mavzusini pedagogik ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida o'tish o'zlashtirilayotgan bilimning yanada mustahkam egallanishiga asos bolib hizmat qiladi. Geografiya fanining bu bolimi bu qismida Okean tubi, litosfera plitasi, terrigen yotqiziqalar, okean loyqasi, qizil tusli okean geli, materik sayozligi (shelf), materik yonbag'ri, batial, abissal, cho'kmalar haqida so'z ketadi. Bu juda qiziq mavzu bo'lib atrofimizdagi tog'lar, chuqurliklar, g'orlar, qirlar, baland-past tekisliklardan tashkil topgan relyefning endilikda suv bilan limmo-lim to'lganligini va eng qizig'i ana shu suv bilan qoplangan chuqurlikda ham tirik hayot mavjudligi ajoyib. Darsni avvalo aqliy hujum bilan boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'tilgan mavzu bilan bog'langan holda olib borilsa mashg'ulot ishtirokchilari keng fikr yuritishiga undaydi, kutilmagan mantiqiy fikrlar

bildiriladi. Davomda esa har bir ta'lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr va g'oyalarning tug'ilishiga sabab boladi. Har bir ta'lim oluvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalariiga asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g'oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi. Mavzuga mos holda quyidagicha savollarni berish mumkin:

Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi?

Dunyoda nechta okean bor?

Eng katta okean qaysi?

Dunyodagi eng sho'r dengiz qaysi?

Bunday savollar bolalarning aqlini charxlaydi, mantiqiy fikrlashini o'stiradi.

Mavzuning qolgan qismi esa yelpig'ich texnologiyasi orqali o'tiladi. Bunda yelpig'ich asosiga dunyo okeani so'zi yozib qo'yiladi va qolgan har bir yelpig'ich qatlamiga okean to'g'risida ma'lumotlar yozib qo'yiladi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.


«Yelpig'ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qantashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«Yelpig'ich» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

-mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solishga hizmat qiladi.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki hozirgi zamonaviy axborot asrida yashayotgan va ma'lumotlar oqimi ulkan bo'lgan jamiyatimizda aqliy salohiyat doimo birinchi o'rinda qolaveradi. Buni teran anglagan holda farzandlarimiz va yosh avlodning bilim va tarbiya jarayoniga befarq bo'lmasligimiz zarur. Bunda hilma-hillikni saqlab qolish, an'anaviylikdan vozkechish zarur. Shu sababli darslar sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika tarixi.-T:O'qituvchi, 1976.
2. O'zbek pedagogikasi tarixi. O. Xasanboyeva, J. Xasanboyev, X. Xamidovlar. T. «O'qituvchi» 1997 yil.
3. 7-sinf geografiya darslik
1.7-sinf geografiya darslik –M.T.Mirkamalov, Sh.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojiyeva